



TOPONYMY OF THE SURKHANDARYA OASIS IN THE WORK "TOHFAT-UL-KHANIY" AND THEIR HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL ANALYSIS

Hamidova Dilnura Lutfullayevna,
2nd Year Student of Termez State University

Homitov Dilovar Lutfullozoda
Scientific Supervisor,
Senior Lecturer (PhD) of Termez State University

ABSTRACT	KEYWORDS
This article is devoted to the historical and geographical analysis of the toponyms of the Surkhandarya oasis as reflected in Muhammad Wafa Karminagi's "Tuhfat al-Khani," an essential primary source on 18th-century Bukhara Khanate history. The study examines the context and historical events associated with strategic locations such as Hisar, Termez, Boysun, Sherobod, Qubodiyon, Dehnav, and Sarijo'y during Muhammad Rahim Khan's centralization campaigns. Furthermore, the article provides an etymological analysis of these toponyms based on the "Farhangi Tafsirii Zaboni Tojiki" dictionary, highlighting the region's ethnic landscape and its significance in the socio-political life of the Manghit dynasty.	Bukhara Khanate, Muhammad Wafa Karminagi, "Tuhfat al-Khani," Surkhandarya oasis, toponymy, historical geography, Muhammad Rahim Khan.

Introduction

“TO‘HFAT-UL-XONIY” ASARIDA SURXONDARYO VOHASI TOPONIMIKASI VA ULARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TAHLILI

Hamidova Dilnura Lutfullayevna
Termiz davlat universiteti 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Homitov Dilovar Lutfullozoda
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqola XVIII asr Buxoro xonligi tarixnavisligining muhim manbasi – Muhammadvafo Karminagiyning «To‘hfati-ul-xoniyy» asarida aks etgan Surxondaryo vohasi toponimlarining tarixiy-geografik tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqotda vohaning strategik punktlari bo‘lgan Hisor, Termiz, Boysun, Sherobod, Qubodiyon, Dehnav va Sarijo‘y kabi joy nomlarining qo‘llanilish konteksti hamda

ular bilan bog'liq tarixiy voqealar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada toponimlarning lug'aviy ma'nolari «Farhangi tafsirii zaboni to'chikī» lug'ati asosida tahlil qilinib, hududning etnik manzarasi va Mang'itlar sulolasining markazlashtirish siyosatidagi o'rni manbaviy asoslar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro xonligi, Muhammadvafo Karminagi, «To'hfat-ul-xoniy», Surxondaryo vohasi, toponimika, tarixiy geografiya, Muhammad Rahimxon.

Аннотация

Данная статья посвящена историко-географическому анализу топонимов Сурхандарьинского оазиса, упомянутых в труде Мухаммадвафо Карминаги «Тухфат-ул-хоний» – важнейшем источнике по истории Бухарского ханства XVIII века. В работе исследуется контекст упоминания таких стратегических пунктов, как Гиссар, Термез, Байсун, Ширабад, Кубадиян, Денау и Сариджуй, а также связанные с ними исторические события периода централизации власти Мухаммадом Рахим-ханом. Кроме того, в статье проводится лингвистический анализ топонимов на основе словаря «Фарханги тафсирии забони то'чикӣ», раскрывается этническая карта региона и значение оазиса в военно-политической жизни Бухарского эмирата.

Ключевые слова: Бухарское ханство, Мухаммадвафо Карминаги, «Тухфат-ул-хоний», Сурхандарьинский оазис, топонимика, историческая география, Мухаммад Рахим-хан.

Qozi Muhammadvafoi Karminagiyning «To'hfat-ul-xoniy» (yoki «Tarixi Rahimxoniy») asari XVIII asr Buxoro xonligi tarixini, xususan Ashtarxoniy lardan Mang'itlar sulolasiga hokimiyat o'tishi davrini yorituvchi eng muhim birlamchi manba hisoblanadi[2,31]. Asarning asosiy qismi 1722 yildan 1769 yilgacha bo'lgan voqealarni qamrab oladi va Muhammad Rahimxonning davlatni markazlashtirish yo'lidagi harbiy yurishlarini batafsil bayon etadi[1,7].

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ushbu asar Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bir qatorda, davrning tarixiy geografiyasi, toponimikasi va etnik tarkibini o'rganishda bebaho ma'lumotlarni taqdim etadi[2,34]. Ayniqsa, Sharqiy Buxoro, jumladan hozirgi Surxondaryo vohasi hududlariga doir geografik nomlar va u yerdagi harbiy-siyosiy jarayonlar tasviri alohida ahamiyatga ega.

«To'hfat-ul-xoniy» asarida Surxondaryo hududidagi joy nomlarining tilga olinishi Muhammad Rahimxon va keyinchalik Doniyolbiy davridagi markazlashtirish siyosati hamda isyonkor mahalliy beklarni bo'ysundirish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

Sarijo'y qal'asi va uning strategik ahamiyati Surxondaryo vohasining tog'li hududlarida joylashgan Sarijo'y qal'asi asarda muhim harbiy-strategik istehkom sifatida tasvirlanadi. Xususan, Hisor hokimi Muhammadaminbiy Buxoro qo'shinlarining ta'qibidan qochib, aynan Sarijo'y qal'asiga panoh izlab keladi[4,262,521]. Muallifning yozishicha, Muhammadaminbiy ushbu qal'ani o'z maqomi va xavfsizligini ta'minlash uchun mustahkamlagan hamda atrofda g'alchalarni (tog'liklarni) o'z atrofida birlashtirgan. Biroq, markaziy hokimiyatning qat'iyati natijasida, amirning buyrug'i bilan Sarijo'y qal'asi mutlaqo vayron qilinadi: «...Muhammadaminbiy qurgan Sarijo'y qal'asining devorlari va oliy imoratlari yer bilan yakson qilindi, u yerda biror-bir bino nishoni qoldirilmadi»[4,270,537]. Bu voqea Surxon vohasidagi isyonkor kuchlarning boshpanasiz qoldirilganini va Mang'itlar sulolasining chekka viloyatlardagi to'laqonli nazoratini ifodalaydi.

Termiz shahri va uning qayta tiklanishi Asarda Termiz shahri nafaqat ma'naviy markaz (Termiz sayyidlari maskani), balki xonlikning janubiy chegaralarini himoya qiluvchi muhim qal'a sifatida tilga olinadi. Muhammadvafo Karminagiy Termiz qal'asining asrlar davomida vayrona holida yotganini va Muhammad Rahimxon davrida uning Arki qayta ta'mirlanganini alohida qayd etadi[4,256,510]. Termizning qayta tiklanishi Buxoro amirligi uchun Amudaryo sohillarini nazorat qilish va Balx tomondan keladigan xavflarning oldini olishda hal qiluvchi o'rin tutgan.

Sherobod va Boysun – Qung'iroq urug'ining maskanlari Surxon vohasining Sherobod va Boysun hududlari «To'hfati-xoniy»da Qung'iroq urug'ining boshqaruv markazlari sifatida tasvirlanadi. Sherobod qal'asi Ko'hitang tog'lari etagida joylashgan mustahkam inshoot bo'lib, uning tasvir etilishi (zabt etilishi) uchun Buxoro qo'shinlari og'ir manjaniqlar va to'plardan foydalangan[4,237,472]. Boysun esa Sharqiy Buxoroga yurish qilishda tayanch nuqtasi bo'lgan. Xonlik ma'muriyati Boysunga alohida hokim (masalan, Imomqulibiy) tayinlab, u yerda 1500 nafar muntazam qo'shin qoldirganligi vohaning siyosiy barqarorlikdagi ahamiyatini ko'rsatadi[4,241,480].

Qubodiyon va Dehnavdagi siyosiy jarayonlar Qubodiyon va Dehnav (Dehnavi Hisor) toponimlari asarda mahalliy Yuz va Durmon urug'larining siyosiy faolligi bilan bog'liq holda keladi. Muhammadaminbiy Dehnavni o'z qarorgohiga aylantirgan bo'lsa, Qubodiyon viloyati tez-tez harbiy to'qnashuvlar maydoniga aylangan[4,213,423,249,495]. Ushbu hududlarda Buxoro amirligining «To'rabardori» an'alariga sodiq hokimlarning tayinlanishi markaziy hokimiyat legitimligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Surxondaryo vohasi toponimlarining lug'aviy va tarixiy-geografik tahlili

Hisor–Lug'aviy jihatdan «Hisor» (حصار) so'zi arabchadan olingan bo'lib, «devor», «qal'a devori», «qal'a» yoki «atrofi devor bilan o'ralgan joy» ma'nolarini anglatadi[5,583]. «To'hfati-xoniy»da ushbu nom «Histori Shodmon» shaklida viloyat va strategik qal'a sifatida tilga olinadi[4,528]. Asarda Hisor Sharqiy Buxoroning markaziy ma'muriy birligi va Muhammad Rahimxon tomonidan bo'ysundirilgan asosiy hududlardan biri sifatida tasvirlangan[2,34].

Dehnav–Ushbu toponim ikkita forscha so'zning birikmasidan hosil bo'lgan: «Deh» (ده) – qishloq, qishloq joyi yoki aholi manzili[5,514; 6,954] va «Nav» (نو) – yangi, yaqinda paydo bo'lgan[5,663; 6,869]. Demak, Dehnav – «Yangi qishloq» ma'nosini beradi. Asarda «Dehnavi Hisor» shaklida kelib, Hisor bekligi tarkibidagi muhim strategik qal'a va Muhammadaminbiyning qarorgohi sifatida qayd etilgan[4,531,537].

Sarijo'y–Toponim ikki qismdan iborat: «Sar» (سر) – bosh, avval, ibtido[5,335; 6,772] va «Jo'y» (جوي) – ariq, kanal, daryocha[6, 685,689]. Lug'aviy ma'nosi – «Ariq boshi» yoki «Suv manbai». «To'hfati-xoniy»da Sarijo'y Surxondaryoning tog'li hududida joylashgan mustahkam qal'a sifatida ta'riflanadi. Muallif bu qal'aning baland va oliy imoratlari bo'lganini, biroq Buxoro qo'shinlari tomonidan butunlay vayron qilinganini bayon etadi[4,270]. Bugungu kunda Sariosiyo tumani markazidan 15 km uzoqlikda Sari jo'y qishlog'i mavjud bo'lib, u yerda tepalik mavjud va u o'sha qal'a qoldig'i bo'lishi mumkin.

Sherobod – Toponimning birinchi qismi «Sher» (شير) – kuchli, jasur hayvon (arslon) yoki pahlavon ma'nosida[6,613], ikkinchi qismi «Obod» (آباد) – obod qilingan, aholi yashaydigan, gullagan joy[5,250,424]. Ma'nosi – «Sherlar makoni» yoki «Sher (ism) tomonidan obod qilingan joy». Manbaga ko'ra, Sherobod bekligi 1757 yilda Boysun tog'lari etagida tashkil etilgan va Qung'iroq urug'ining muhim markazi bo'lgan[4,11].

Sulton Saodat – Bu nom Termizdagi mashhur me'moriy majmuaga nisbatan ishlatiladi. «Sulton» (سلطان) – hukmdor, podshoh, hokim[5,440], «Saodat» (سعادت) – baxt, xursandchilik, shodmonlik ma'nosini anglatadi[6,787]. Majmua nomi «Baxtli hukmdorlar» yoki «Saodatli sultonlar» degan ma'noni berib, bu yer Termiz sayyidlarining (Payg'ambar a.s. avlodlari) xonaqohi va daxmasi hisoblangan[7,212].

Termiz – Asarda Amudaryo sohilidagi muhim shahar sifatida tilga olinadi. Lug'aviy tahlilda u Termiz sayyidlari yashaydigan makon sifatida ulug'lanadi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, shaharning Arki Muhammad Rahimxon davrida qayta ta'mirlangan va strategik himoya punktiga aylantirilgan[4,256]. Xulosa qilib aytganda, «To'hfat-ul-xoniy» asaridagi Surxondaryo toponimlari shunchaki geografik nomlar emas, balki XVIII asrda Buxoro xonligining siyosiy xaritasini shakllantirgan, strategik chegaralarni belgilagan va Mang'itlar sulolasining viloyatlardagi hokimiyatini mustahkamlagan muhim nuqtalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurasulova F.B. Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotini o'rganishda manbashunoslik tavsifi // Tarixiy tadqiqotlar илмий журнaли. – Тошкент, 2024. – № 3 (5). – Б. 4-12.
2. Saidov B.L. «Тўхфат-ул-хонӣ»-и Муҳаммадвафои Карминағӣ сарчашмаи нодири таърихӣ // Номаи донишгоҳ. Илмҳои гуманитарӣ ва ҷомеашиносӣ. – Хужанд, 2023. – №1 (74). – С. 31-38.
3. Yo'ldoshev Azizjon Azimjonovich. Termiz sayyidlarining IX-XVII asrlarda O'rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli // Qo'qon DPI ilmiy xabarlar. – Қўқон, 2026. – № 1. – Б. 207-213.
4. Муҳаммадвафои Карминағӣ. Тўхфат-ул-хонӣ. Муқаддима, таҳияи матн, нусхабадал, таълиқот ва феҳристҳои Ҷамшед Ҷӯразода ва Нурулло Ғиёсов. – Хужанд: Нури маърифат, 2017. – 976 б.
5. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Иборат аз 2 ҷилд / Зери таҳрири С. Назарзода (раис), А. Сангинов, С. Каримов, М.-Ҳ. Султон. – Душанбе, 2008. – Ҷ. 1 (А-Н). – 950 с.
6. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Иборат аз 2 ҷилд / Зери таҳрири С. Назарзода (раис), А. Сангинов, С. Каримов, М.-Ҳ. Султон. – Душанбе, 2008. – Ҷ. 2 (О-Я). – 945 с.
7. Yo'ldoshev Azizjon Azimjonovich. Termiz sayyidlarining IX-XVII asrlarda O'rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli // Qo'qon DPI ilmiy xabarlar. – Қўқон, 2026. – № 1. – Б. 207-213.